

«Sof» tariflar tizimi

Narxlash

Tarif rejasining nomi	Sof 18	Sof 30	Sof 40	Sof 50	Sof 70	Sof 100	Sof 150
Oylik abonent to'lovi	18 000 so'm	30 000 so'm	40 000 so'm	50 000 so'm	70 000 so'm	100 000 so'm	150 000 so'm
Oylik internet-trafik limiti	3 GB	7 GB	10 GB	13 GB	22 GB	35 GB	Cheksiz*
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi qo'ng'iroqlarning oylik limiti	1200	3000	Cheksiz**	Cheksiz**	Cheksiz**	Cheksiz**	Cheksiz**
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMSlarning oylik limiti	500	1000	1500	2500	4000	5000	5000
«Yozgi tunlar» aksiyasi. Yangi ulanishda oylik tungi internet trafik	-	-	20 GB	26 GB	44 GB	70 GB	-
Limitlarni tekshirish	*100# - daqiqalar va SMSlar, internet-trafik MBlari						

* Barcha yo'nalishlarga trafikning oylik limiti – to'liq tezlikda 100 GB. To'liq tezlikda taqdim etilgan limit tugagandan so'ng, internet tezligi pasayadi va 128 kbit/soniyagacha qilib o'rnatiladi.

** Texnik cheklanma – oyiga 45000 daqiqa.

Yo'nalishlar bo'yicha narxlash:		
	Sof 18, Sof 30	Sof 40, Sof 50, Sof 70, Sof 100
Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qo'ng'iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari)	50 so'm	25 so'm
1 MB internet narxi	50 so'm	25 so'm
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMS narxi (berilgan limitdan tashqari)	50 so'm	25 so'm
	50 so'm	25 so'm
Xalqaro SMSlar	1000 so'm	
Xalqaro MMSlar	1263 so'm	

Tarifga o'tish: *120#

Limitlarni tekshirish: *100# - daqiqalar, SMSlar va internet-trafik MBlari.

Sof 40, Sof 50, Sof 70 va Sof 100 tarif rejalariga uchun "Yozgi tunlar" aksiyasi!

16.06.2022 - 31.08.2022 davrida. **Sof 40, Sof 50, Sof 70 va Sof 100** tarif rejalariga yangi ulanishda tungi Internet-trafik (soat 01:00 dan 08:00 gacha) taqdim etiladi!

Tarif uchun oylik abonent to'lovi muvaffaqiyatli yechib olingandan keyin tungi trafikdan foydalanish mumkin bo'ladi

Eslatma:

Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar ma'lumotlarini sinxronlashga, hamda analitik-hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plamdan sarflanadi.

28.07.2022 dan - 31.12.2022 gacha:

- **«Sof» tizimi tarif rejalariga yangi ulanishda yoki boshqa tariflardan o'tishda, «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmati avtomatik tarzda bepul asosda taqdim etiladi;**
- «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmatiga (oylik va kunlik opsiyada) oldin pulli asosda ulangan abonentlarga mazkur xizmat endi bepul belgilanadi;
- Xizmatni boshqarish *977# USSD-so'rovi yordamida amalga oshiriladi;
- «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmatining faol pulli (oylik va kunlik) opsiyalari, «Barcha uchun ovoqli pochta» xizmati o'chiriladi va bepul asosda «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmati belgilanadi.

Qo'shimcha ma'lumot

1. Tarif rejaları yangi ulanishlar hamda Prepaid tizimi abonentlari o'tishlari (USSD *120#) uchun ochiq.

2. Oylik abonent to'lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:

- Abonentning tarif rejasiga ulanish/o'tish sanasi oylik davrda oylik abonent to'lovining yechilish sanasi hisoblanadi.

- Tarif rejasiga yangi ulanishda/o'tishda, agar abonent hisobida yetarlicha mablag' bo'lsa, oylik abonent to'lovi va limitlar to'liq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi va belgilanadi.

- Hisob manfiy holatda bo'lsa yoki unda tarif bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilishi uchun mablag' yetarli bo'lmasa, u holda abonent to'lovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limitlar belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasini bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasini bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.

- Tarif rejasini doirasida navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha bo'lgan davrda (yechilish vaqti qat'iy belgilanmagan) amalga oshadi. Oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablag' bo'lishi kerak.

- Agar oylik abonent to'lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to'lovi qiymatidan kam mablag' qolgan bo'lsa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lmaganicha abonent to'lovi yechilmaydi.

- Abonent hisobi abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirilishi bilan oylik abonent to'lovi **darhol** yechiladi. Abonent to'lovi yechilishi bilan abonent raqami faol holatga o'tadi va tarif rejasini shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya'ni, tarif rejasini bo'yicha navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi tarif rejasini bo'yicha oylik abonent to'lovi **so'nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab** bir oylik oraliqda amalga oshadi.

3. Bloklanish shartlari:

- Raqam musbat hisob holatida, agar tarif rejasini bo'yicha oylik abonent to'lovi yechilishi paytida hisobda yetarlicha mablag' bo'lmasa, shuningdek manfiy hisob holatida, agar tegishli qo'shimcha xizmatlar ulangan bo'lsa bloklanadi;

- Bloklangan holatda tarif rejasini almashtirish imkoni bo'lmaydi;

- Bloklangan holatda abonent oldin xarid qilingan oylik internet-to'plamlar limitlarining qoldiqlaridan, toki ularning amal qilish muddati tugaganigacha qadar foydalana oladi (qoldiq mavjud bo'lsa);

- Bloklangan holatda bo'lishning umumiy shartlari bilan [bu yerda](#) tanishish mumkin.

4. Tarif rejasini doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Tarif rejasini shartlariga ko'ra oylik limitlar belgilangan kundan boshlab 1 oy muddatga taqdim etiladi. Joriy davrda belgilangan oylik limitlarning qoldiqlari faqat abonent to'lovi **o'z vaqtida to'lansagina** navbatdagi bitta davrga ko'chirib o'tkaziladi. Oldingi davrdan ko'chirib o'tkazilgan oylik limitlarning qoldiqlari **faqat** joriy oyning oxirigacha amal qiladi.

- Agarda oylik abonent to'lovi o'z vaqtida yechilmasa, u holda limitlarning oldingi hisob-kitob davrida ishlatilmay qolgan qoldiqlari bekor qilinadi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasini bo'yicha limitlar belgilanganligini *100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.

- Tarif rejasini doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo'ng'iroqlar va SMSlar tarif rejasini shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.

- Tarif rejasini va qo'shimcha internet-to'plamlar doirasidagi oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Bu holatda abonent internetni qayta ishgaga tushirish uchun havolalik SMS oladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo'ladi:

- Tarif bo'yicha limitlarni yangilash («Restart» xizmatini faollashtirish);
- Internet-to'plam xarid qilish;
- 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish*

* Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to'plam xarid qilsa, u holda qo'shimcha to'plam limitlari tugaganidan so'ng toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi.

«1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish» opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.

Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.

E'tibor qiling:

- «Sof» tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, agar abonent yuqoriroq tarifga o'tsa, u holda oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar yangilariga qo'shiladi va toki sarflab tugatilguniga qadar yoki ularning oldingi tarif rejasiga ko'ra amal qilish muddati tugaguniga qadar ulardan foydalanish mumkin bo'ladi.
- «Sof» tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, agar abonent quyiroq tarifga o'tsa, u holda oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.
- Boshqa tarif rejalaridan «Sof» tariflar tizimiga, «Start 10», «Ovoz 15» va «Internet 60» tarif rejalariga o'tilsa oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.

5. «Sof» tariflar tizimi abonentlari uchun «Qadrdonlar!» hamda «U+» sodiqlik dasturlari amal qiladi.

6. Tarif rejaları shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar axborot-ko'ngilochar xizmatlarga hamda xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

7. Tarif rejaları doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

8. «Sof» tariflar tizimi abonentlari uchun «Sizga qo'ng'iroq qilishdi», «Qulay daqiqalar» («Sof 18», «Sof 30» TRlar uchun), «Raqamni saqlab qolish», Oylik internet-to'plamlar, Metroda Ucell cheksiz internet-to'plamlari (faqat «Cheksiz 30 kun» to'plami), «Internet-sovg'a» xizmatlari, «Al Chiroq» aksiyasi amal qiladi.

9. «Sof» tariflar tizimi abonentlari uchun «Tungi internet», Kunlik SMS-to'plamlar, «Soatbay internet» hamda «Maksimal internet» xizmatlari, «Tarmoq ichida qulay» hamda «O'zbekiston bo'yicha qulay» to'plamlari, Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, Oylik 4G internet-to'plamlar, Cheksiz internet-to'plamlar amal qilmaydi.

10. «Sof 150» tarif rejasi abonentlari uchun Oylik internet-to'plamlar, «Buyurtma to'plam», Metroda Ucell cheksiz internet-to'plamlari, «Internet-sovg'a», TAS-IX uchun internet-to'plamlar, «Internet Mega BOOM», «Trafik+», «Tungi internet-to'plamlar» xizmatlari va «Al Chiroq» aksiyasi amal qilmaydi.

11. «Sof» tizimi tarif rejaları abonentlari faqat «Start 10», «Ovoz 15», «Internet 60» tarif rejalariga o'tishlari mumkin.

12. «Sof» tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, ko'rsatilgan shartlarga ega bo'lgan tarif rejaları doirasida oldin olingan O'zbekiston bo'yicha cheksiz daqiqalar va cheksiz internet amal qilmaydi.

13. Tegishli tarif rejaları doirasida olingan cheksiz shartlar (qo'ng'iroqlar, internet) tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining o'z vaqtida yechilishi holatida, shuningdek, tarif rejasini almashtirganda keyingi oyga ko'chirib o'tkazilmaydi.

14. «Sof» tizimi tariflaridagi «Cheksiz Telegram» aksiyasi shartlariga ko'ra, mazkur aksiya faqat yangi ulanishda har bir abonentga taqdim etiladi va tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan so'ng undan foydalanish mumkin bo'ladi (*Texnik cheklanma – 1 TB*). «Cheksiz Telegram» aksiyasining amal qilish muddati – 30.06.2022 gacha.

15. «Cheksiz Telegram» opsiyasi yoqilgan bo'lsa, «Trafik+» xizmatini faollashtirib bo'lmaydi

16. Yangi ulanishlar uchun aksiya doirasida olingan cheksiz Telegram raqam Bloklangan holatda va MB limitlari tugagan bo'lsa ham amal qiladi.

17. Telegram ilovasi orqali videoqo'ng'iroq qilganda «Cheksiz Telegram» xizmatiga ajratilgan internet-trafik emas, balki tarif rejasida berilgan umumiy limit yoki internet-to'plamlar doirasidagi internet-trafik sarflanadi.

18. Internet xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlarga [mablag'larni rezervatsiya qilish tizimi](#) va [4G tarmog'ining ishlash xususiyati haqida qo'shimcha ma'lumot](#) bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.

«Restart» xizmatining shartlari

1. «Restart» xizmati *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.
2. «Restart» xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.
3. «Restart» xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. «Restart» xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.
4. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasi oylik abonent to'lovi doirasida to'liq oylik limit belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi.
5. Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi.
6. «Restart» xizmati muvaffaqiyatli faollashganida, tarif rejasi doirasida oldin belgilangan limitlar (O'zbekiston bo'yicha daqiqalar va MBlar) qoldiqlari bekor qilinadi.
7. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida «Restart» xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.
8. «Restart» xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin.

Tarifni almashtirish

Boshqa tarif rejalaridan o'tish narxi:

Boshqa tarif rejalaridan «Sof» tizimi tarif rejalariga o'tish narxi - **0 so'm**.

«Sof» tariflar tizimidan «Start 10» hamda «Ovoz 15» tarif rejalariga o'tish narxi - **2105 so'm**.

«Internet 60» tarif rejasidan «Sof 18», «Sof 30», «Sof 40», «Sof 50» tarif rejalariga o'tish narxi - **2105 so'm**.

«Internet 60» tarif rejasidan «Sof 70», «Sof 100», «Sof 150» tarif rejalariga o'tish narxi - **0 so'm**.

Tarif rejasini almashtirish faqat Faol holatda mumkin bo'ladi.

*120# USSD-buyrug'i yordamida «Sof» tariflar tizimi ichida boshqa tariflarga o'tish narxlari

Quyidagi tarif rejasiGA o'tish	Quyidagi tarif rejasidan o'tish						
	Sof 18	Sof 30	Sof 40	Sof 50	Sof 70	Sof 100	Sof 150
Sof 18	-	2105	2105	2105	2105	2105	2105
Sof 30	0	-	2105	2105	2105	2105	2105
Sof 40	0	0	-	2105	2105	2105	2105
Sof 50	0	0	0	-	2105	2105	2105
Sof 70	0	0	0	0	-	2105	2105
Sof 100	0	0	0	0	0	-	2105
Sof 150	0	0	0	0	0	0	-

